


QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot(xizmat)larining umumiyligi hajmi 3149,8 mlrd. so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chovachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar -3138,0 mlrd.so'mni (101,6 foiz), o'rmon xo'jaligida-4,8 mlrd.so'mni (93,1 foiz), baliq xo'jaliklari-7,0 mlrd.so'mni (173,4 foiz) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi

mlrd.so'm
foizda


Xususan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahar (119,2 foiz), Kogon (103,3 foiz), Buxoro (103,1 foiz) tumanlarida kuzatildi. Kogon shahar (78,1 foiz) va Peshko'(100,1 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Jondor tumaning ulushi 12,2 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha etakchilik qilmoqda, Buxoro va G'ijduvon tumanlari mos ravishda 12,1 foiz va 11,2 foiz ko'rstanich bilan keyingi o'rnlarni egalladi. Eng kam ulush Kogon shahar (0,1 foiz), Buxoro shahar (1,4 foiz) va Qorovulbozor (2,6 foiz) tumanlarida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2017 yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 98,2 foizni va chorvachilik mahsulotlari-107,0 foizni tashkil qildi.


Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 80,9 foizi-dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 16,4 foizi-fermer xo'jaliklariga, 2,7 foizi-qishloq xo'jaligini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida





Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'satkichlar barcha tuman va shaharlarda dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


Dehqonchilik

2018 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarning hajmi 1808,1 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 98,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyo'jajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,4 foizni tashkil qildi.



Hosilni yig'ib olish. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida don jami 407775 tonna (81,7 foiz), kartoshka 160049 tonna (100,5 foiz), sabzavotlar 233732 tonna (106,8), poliz 14020 tonna (107,6 foiz), meva va rezavorlar 142217 tonna (100,5 foiz), uzum 3515 tonna (100,7 foiz) yig'ib olindi.

Asosiy turdag'i dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi



Dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida umumiyo'jajtida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 57,4 foizni tashkil qildi.



kartoshkaning 94,4, sabzavotlarning hajmining 90,4, polizning 66,1, meva va rezavorlarning 73,1, uzumning 96,2 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi.

Chorvachilik




2018 yil yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1289,3 mlrd.so'mni yoki 2017 yilning mos davriga nisbatan 107,0 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiyligi hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 40,9 foizni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 116,6 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 7,4 foizga ko'p), 423,3 ming tonna sut (7,9 foizga), 239,9 mln.dona tuxum (19,2 foizga), 2197,0 tonna jun (2,2 foizga), 400,4 ming dona qorako'l teri (1,9 foizga), 1304 tonna pilla ,792 tonna asal (2,6 foizga) ishlab chiqarildi.

Asosiy turdag'i chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda ho'jalik toifalarining ulushi





Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiyligi hajmidan 96,2 foizi dehqon(shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,1 foizi, tuxumning 61,3 foizi, junning 83,0 foizi, qorako'l terining 89,1 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.



Ishlab chiqarilgan asosiy turdag'i chorvachilik va baliqchilik mahsulotlarini hududlar kesimida taqsimlanishi

Go'sht (*ming.t*)

Sut (*ming.t*)




Yirik shoxli qoramollar va parrandalar bosh soni

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1195,7 ming boshga, shu jumladan sigirlar – 385,3 ming boshga, qo'y va echkilar – 2085,1 ming boshga, ot-4885 bosh, parrandalar – 4446,3 ming boshga etdi.

2017 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni – 36,2 ming boshga (3,1 foizga), shu jumladan sigirlar – 1,5 ming boshga (0,4 foizga), qo'y va echkilar – 79,2 ming boshga (3,9 foizga), otlar – 321 boshga (7,0), parrandalar – 784,4 ming boshga (21,4 foizga) ko'paydi.

Xo'jalik toifalarining chorva mollari va parrandalar bosh sonidagi ulushi



Fermer xo'jaliklari

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari


Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2018 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollar 5,3 foizi fermer xo'jaliklari 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,5 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,8 foizi fermer xo'jaliklariga, 81,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,3 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 6,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 59,4 foizi dehqon (shaxsiy





yordamchi) xo'jaliklariga, 34,1 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.

Qoramollar va parrandalar bosh soni hududlar kesimida 2018 yil 1 iyul holatiga



Qo'y va echkilar (ming.bosh)



Parrandalar (ming.bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

- +99865-223-68-82
- +99871-230-83-07